BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BADIIY MATNLAR ORQALI KASBGA OID KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY JIHATLARI

Xoliqova Matluba Mardon qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti assistenti
xoliqovamatluba5@gmail.com
Telefon raqami: +99899773-36-01

Ubaydullayeva Gulnoza Umirzoq qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim
yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
gulnozaubaydullayeva30@gmail.com
Telefon raqami: +99894-736-63-03
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20279571

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy matnlar orqali kasbga oid ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik metodlari va amaliy ta’siri tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, badiiy matnlar yordamida o‘quvchilarda kasbga oid qiziqish va ijtimoiy-muloqot ko‘nikmalarini samarali shakllantirish mumkin.
Kalit so‘zlar: badiiy matnlar, kasbga yo‘naltirish, boshlang‘ich ta’lim, kompetensiya, pedagogik metodlar.

ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ПОСРЕДСТВОМ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические методы и практическое влияние развития профессиональных навыков у учащихся начальной школы посредством литературных текстов. Результаты показали, что использование литературных текстов может эффективно формировать профессиональный интерес и социально-коммуникативные навыки у учащихся.
Ключевые слова: литературные тексты, профессиональная ориентация, начальное образование, компетентность, педагогические методы.

PRACTICAL ASPECTS OF FORMING PROFESSIONAL SKILLS IN ELEMENTARY STUDENTS THROUGH ARTISTIC TEXTS

Abstract. This article analyzes the pedagogical methods and practical impact of developing professional skills in elementary school students through literary texts. and competency development, interactive methods, and assessment criteria. The results showed that using literary texts can effectively develop professional interest and socio-communication skills in students.
Key words: literary texts, career guidance, primary education, competence, pedagogical methods.

KIRISH. Bugungi ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini erta yoshdan turli kasblar haqida xabardor qilish va ularda mehnatga hurmat ruhini shakllantirish pedagogik

ahamiyatga ega. Badiiy matnlar o‘quvchilarda mehnat qadri, mas’uliyat, hamkorlik kabi ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogika nazariya shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida matnli materiallardan foydalanish bolalarda analitik fikrlash va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatini beradi. Yangi ta’lim islohotlari sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini erta yoshdan kasbga yo‘naltirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda turli kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish, mehnatga hurmat ruhini tarbiyalash hamda kasb tanlashga ongli munosabatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy matnlar – ertak, hikoya, she’r va rivoyatlar – bolalarda kasb egalariga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ijobiy qahramonlar orqali mehnatsevarlik, mas’uliyat, halollik kabi sifatlarni singdirishda samarali vosita hisoblanadi. Erta kasbga yo‘naltirish zamonaviy ta’lim tizimlarining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarda turli kasblar haqida dastlabki tasavvurlar shakllanadi, mehnatga, ijtimoiy mas’uliyatga munosabat shakllanadi.

Kasbiy qiziqish va ko‘nikmalarni o‘rganish va rivojlantirish boshlang‘ich maktabda boshlanadi. Bu yoshda bolalar shakllana boshlaydi, mehnat va kasblar dunyosi, ularning qiziqishlari va moyilliklari haqidagi tasavvurlar endigina paydo bo‘la boshlaydi. Shuning uchun, kasbiy yo‘naltirish ishini boshlash muhimdir, ta’limning dastlabki bosqichlarida. Ammo shuni yodda tutish kerakki, boshlang‘ich maktabda kasbga yo‘naltirish darslari oson, qiziqarli va bo‘lishi kerak. Bu yoshdagi bolalar ko‘proq o‘yin orqali o‘rganadilar, shuning uchun o‘yin komponenti o‘qitishning barcha shakllarida mavjud bo‘lishi kerak. Shunday qilib, kasb tanlash uchun samarali tayyorgarlik erta yoshdan boshlanadi. Aqliy salohiyat tomondan kasb-hunar tanlash uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘pgina kasb-hunarlarni kerakligicha o‘rganish, o‘rganganda ham kasb-hunarlarni o‘ziga tortadigan jihatlarini emas, balki mashaqqatlarini ham chuqurroq o‘rganishi, o‘zining shaxsiy odatlariga ko‘ra tanlangan kasb yoki hunarini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish faoliyatida o‘zining ko‘nikmasini rivojlantirish majbur qilinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunar tanlashi uchun keng yo‘l yaratib beradigan kasb-hunarlar olami bilan mukammal tanishish va kasb-hunarlar haqida tasavvurlarga ega bo‘lish,ularni moyilligini, qiziqishini va intilishini oshirishda quyidagi ko‘pgina metodik tavsiyalari mavjud:

- turli xil tashkilotlar uyushmasiga ekskursiyalar tashkil qilish-bunga bevosita tashkilotlar uyushmasiga borib,ulardagi ish faoliyati jarayoni,faoliyat yuritiladigan soha va ish tartibi bilan mukammal tanishish;
- axborotli ko‘pgina dasturlar, agitatsiyalar, reklamalar, buketlar va boshqalar;
- tajribali mutaxassislar bilan samarali uchrashuvlar o‘tkazish yo‘li orqali;
- madaniy-ma’naviy tadbirlar tashkil qilish yo‘li bilan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishda foydalanilgan metodik tavsiyalar yuqorida berilgan ro‘yxatlardan ancha ko‘p,biroq keltirilgan metodik tavsiyalar muhim, asosiy va bu yoshdagi o‘quvchilarni kasb-hunar tanlashida eng qulay va oson bo‘lgan yondashuv sifatida ko‘riladi. Insonni kasb-hunarga yo‘naltirish maxsus ilmiy amaliy faoliyat yordamida amalga oshiriladi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning inson sifatida takomillashish jarayonlarida inson va jamiyat ya’ni oila yagona bir tizim sifatida e’tiborga olinadi, o‘tish davrida bozor munosabati aloqalari talablari ahamiyatga olinadi. Kasb-hunarni to‘g‘ri tanlash har bir rivojlanib kelayotgan kelajak yosh ob’ektiv vajlariga, qiziqishlariga, moyilliklariga, iste’dodiga va imkoniyatlariga xos bo‘lishi uchun uning sog‘ligini, o‘zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish muhim, bular ijtimoiy samarali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘proq o‘z ifodasini topadi va namoyon bo‘ladi.

ASOSIY QISM. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kasbiy asosiy xususiyatlarni erta aniqlash esa keyinchalik unga o’z odatlariga qarab kasb yoki hunarni to’g‘ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda erkin egallash, hunarda baland natijalarga erishish darajasini yaratish mumkin. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi nafaqat ilm-fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltiradi. O‘quvchi bolaligidan biror kasbga mehr qo‘yadi, uni orzu qiladi, o‘sha kasb egasi sifatida o‘zini tasavvur qiladi. Tadqiqotlarga ko‘ra maktab o‘quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang‘ich sinflardayoq shakllanar ekan. Boshlang‘ich sinflarda ta’limning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat.

O‘qituvchining vazifasi – o‘quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg‘un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Sinfdan va maktabdan tashqari ish o‘quvchilarni kasb-korni ongli ravishda tanlashga, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ularda ishga qiziqishni shakllantirishga ko‘p jihatdan yordam beradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo‘naltirish ishida o‘quvchilarning yoshi va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq sayohatlar uyushtirish, eng ommalashgan kasblar to‘g‘risida qishloq maktablarining o‘quvchilari uchun jamoa xo‘jaligida, shahar maktablarining o‘quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan yutuqlari to‘g‘risida suhbatlar tashkil qilish ko‘zda tutiladi. Sayohatlar chog‘ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom-ashyodan tayyor mahsulot olishiga, mehnat qurollariga asosiy e’tibor beriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o‘quvchilarni kasb tanlashlariga qiziqtira olishi lozimdir.

Badiiy asarlar o‘quvchilarga:

- turli kasblar mazmuni haqida tasavvur beradi;
- kasb egalari obrazini ijobiy yoki salbiy jihatlari bilan ochib beradi;
- mehnat jarayonining ijtimoiy ahamiyatini tushuntiradi;
- kasbga oid fazilatlarni shakllantiradi (mas’uliyat, intizom, sabr, ijodkorlik).

Masalan, bolalar adabiyotidagi ko‘plab hikoyalarda o‘qituvchi, shifokor, quruvchi, dehqon kabi kasb egalari obrazlari orqali mehnatning qadri yoritiladi.

Kasbga yo‘naltirish ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda dars mashg‘ulotlari, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o‘yin, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kasb tanlashda biroz qiynaladilar aniq

to‘xtamga kela olmaydilar, aniq bir kasbni tanlashdan uzoq turadilar. Biroq ular o‘rtasida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan kasb tanlash ishi shunday bir asos bo‘lishi kerakki, yuqori sinflardagi o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishlari, o‘y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadi.

“Kasblar alifbosi” mashqi. Ishtirokchilarga mavjud bilimlari asosida turli kasblar bilan taqqoslab ko‘rishga o‘rgatish, harflarni va shu harfga mos guruh hamda kasb nomini o‘rganish. Mashqning borishi: Trening ishtirokchilari to‘rt guruhga bo‘linib olishadi. Guruhlar o‘zlariga berilgan harflarga kasb nomlarini topib yozishlari kerak. Har bir guruh o‘z taqdimotini tayyorlaydi va kasblar nomlarini o‘zlariga berilgan harflar bo‘yicha topadilar. Agar taqdimot qilayotgan guruh kasb nomlarini topishda qiynalsalar boshqa guruh ishtirokchilari tomonidan to‘ldiriladi. Belgilangan vaqt ichida bajara olmagan guruhga

rag‘bat berilmaydi. Boshqa guruhlar o‘z variantlarini taklif qilishi mumkin. Har bir topilgan kasb uchun alohida ball beriladi. Eng ko‘p kasb nomini topgan guruh g‘olib deb topilib rag‘batlantiriladi. Xulosa o‘rnida trener qolib ketgan harflarga mos kasblar nomlarini aytib mashg‘ulotni yakunlaydi.

“Sozli tasavvur” didaktik o‘yini. Sinf o‘quvchilari 4 guruhga bo‘linib olishadi va o‘qituvchi ularga kasb nomlari yozilgan kartochkalarni taqdim qiladi. Guruhlar o‘zlariga berilgan kartochkalardagi kasb nomlariga jiddiy e’tibor qaratishadi hamda shu kasbga mos qo‘shiq topib kuylashlari shart. Qo‘shiq kuylash bilan birga shu kasbni aks ettiruvchi rasm chizadilar. Guruhlar belgilangan vaqt ichida topshiriqni bajradilar. Eng chiroyli qo‘shiq kulagan va rasm chizgan guruh g‘olib deb topiladi. Agar kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlarining tarbiyaviy maqsadiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak bola biror bir faoliyat bilan shug‘ullanishi jarayonida mehnatni qadrlashga hamda o‘zlaridan kattta insonlarning mehnatini, kasbini hurmat qilishga o‘rganishadi. Zamonaviy dunyoda o‘quvchilar kasblarning ahamiyati va muhimligini idrok etishi lozim. Demak, o‘quvchilarda kasbiy majburiyatlar, masu’liyatlilik, tartiblilik kabi sifatlarni tarbiyalash muhim hisoblamadi.

XULOSA. O‘quvchilarni boshlang‘ich sinflardan boshlab kasga yo‘naltirish kognitiv faoliyatning rivojlanishi bilan namoyon bo‘ladi hamda jamoada foydali mehnat qilishiga, kelajakda mukammal kasb egasi bo‘lishiga zamin tayyorlaydi. Boshlang‘ich sinfda badiiy matnlar orqali kasbga oid ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Badiiy asarlar orqali bolalarda mehnatsevarlik, kasbga hurmat, mas’uliyat va kelajak kasbini ongli tanlashga tayyorgarlik shakllanadi. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim jarayonida badiiy matnlardan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning kasbiy orientatsiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Maktabnining aynan mana shu boshlang‘ich davri o‘quvchilarning eng faol rivojlanish davri bo‘lib, kelgusidagi dunyoqarashini, fikrlash doirasini, tafakkur qilishni,ma’naviy rivojlanishi qolaversa kommunikativlik qobiliyatini ham shakllanishida aynan manashu to‘rt yillik o‘quv yili zamin bo‘lib beradi. Boshlang‘ich sinflarda badiiy matn ustida ishlashnihoyatda ahamiyatlidir. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda ularni qayerdaishlatish kerakligi haqida alohida ma’lumotga ega bo‘lishadi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilardakommunikativ qobiliyatning yuzaga chiqaradi, balki yanada rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Begmatov A. T. “Badiiy matnni o‘rganishda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish”. Toshkent: “Fan va ta’lim” nashriyoti, 2019. B.150-160.
2. A.Jalilov “Kasb qanday tanladi?” - Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2010. B.36-45.
3. Hasanov A.R. “O‘quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari”. “Xalq ta'limi jurnali” 2020-y. B.45-52.
4. B.Xolmo‘minova. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasga yo‘naltirish
5. jarayonida kognitiv faoliyatni rivojlantirish” Maktab va hayot ilmiy -metodik
6. jurnali. -Toshkent 2022-y. B.120-140.
7. B.Xolmo‘minova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish
8. tizimini takomillashtirish” “Pedagogika” Ilimiy- metodik jurnali.- Toshkent 2022. B.130-140.
9. P.Xolmatov va boshqalar. “Kasb tanlash xususiyatlari”-Toshkent, 2022-y. B.150-170.